

IMOM BUXORIY HADISLARIDA AYOLLAR MASALASI

Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi

Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası

katta o‘qituvchisi, PhD

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Imom Buxoriyning hadislar to‘plamida ayollarning jamiyat, oila va diniy hayotdagi o‘rni yoritilgan. Hadislar asosida ayollarning huquq va majburiyatlari, ilm olish, odob-axloq, nikoh, onalik hamda oilaviy munosabatlarga oid masalalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadislarning mazmuni ilmiy jihatdan sharhlanib, ularning bugungi kundagi ma’naviy va ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Imom Buxoriy, hadis, ayol, islom, ayollar huquqlari, oila, nikoh, onalik, ilm olish, odob-axloq, tarbiya, musulmon ayol, hadis ilmi, ma’naviy qadriyatlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос о положении женщины в сборнике хадисов Имама аль-Бухари. На основе хадисов анализируются права и обязанности женщин, их роль в семье, обществе и религиозной жизни, а также вопросы образования, нравственности, брака и материнства. Исследование раскрывает научное и духовно-нравственное значение хадисов Имама аль-Бухари и их актуальность в современных условиях.

Ключевые слова: *Имам аль-Бухари, хадис, женщина, ислам, права женщин, семья, брак, материнство, образование, нравственность, воспитание, мусульманка, хадисоведение, духовные ценности.*

ABSTRACT

This article examines the issue of women in the hadith collection of Imam al-Bukhari. It analyzes women's rights and responsibilities, their role in family, society, and religious life based on authentic hadiths. Special attention is given to issues of education, morality, marriage, motherhood, and family relations. The study highlights the scholarly, ethical, and contemporary significance of Imam al-Bukhari's narrations regarding the status and dignity of women in Islam.

Keywords: *Imam al-Bukhari, hadith, women, Islam, women's rights, family, marriage, motherhood, education, morality, upbringing, Muslim women, Hadith studies, spiritual values.*

KIRISH

Islom dini insoniyat tarixida ayolning sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlarini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratgan dinlardan biridir. Qur'oni karim va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarida ayolning oiladagi, jamiyatdagi hamda ma'naviy hayotdagi o'rnini keng yoritilgan. Ayniqsa, hadislar musulmonlarning kundalik hayotini tartibga soluvchi muhim manbalardan biri sifatida ayollarga oid diniy, axloqiy, ijtimoiy va huquqiy masalalarni o'zida mujassam etgan.

Hadis ilmining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Imom Buxoriy (810–870) tomonidan yaratilgan “Al-Jome’ as-Sahih” asari islom olamida Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli manba sifatida e'tirof etiladi. Mazkur asarda ayollarning ilm olish huquqi, oiladagi o'rnini, nikoh va oila munosabatlari, onalik maqomi, ibodat, odob-axloq hamda jamiyatdagi mas'uliyati bilan bog'liq ko'plab hadislar jamlangan. Ushbu hadislar nafaqat diniy-huquqiy me'yorlarni belgilaydi, balki ayolning insoniy qadr-qimmatini va jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga oid muhim tamoyillarni ham ifodalaydi.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi globallashtirish va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida ayollarning huquq va manfaatlarini diniy manbalar asosida ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, Imom Buxoriy hadislarida ayollar masalasining qanday yoritilgani, ushbu rivoyatlarning tarixiy, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini o'rganish zamonaviy islomshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asarida keltirilgan ayollarga oid hadislarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularda ayolning maqomi, huquq va majburiyatlari, oilaviy hamda ijtimoiy hayotdagi o'rnini haqidagi qarashlarni yoritishdan iborat. Shuningdek, hadislarining bugungi jamiyatdagi tarbiyaviy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini ochib berish ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, germenevtik, kontent-tahlil hamda manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asarida ayollar mavzusiga oid hadislar tanlab olindi, ularning mazmuni Qur'on oyatlari, klassik hadis sharhlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, hadislarining bugungi jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati ilmiy yondashuv asosida baholandi.

“Sahih Buxoriy”ning 1-juz'idagi ayollar mavzusiga bag'ishlangan hadislarini saralab chiqish jarayonida, quyidagi hadisda ham ayollarning maqomi qanchalar yuksakligini kuzatishimiz mumkin:

Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” to‘plamining “Muhammad Payg‘ambarga nechuk vahiy kela boshlagani hamda Allohning “Biz senga Nuh va undan keyingi Payg‘ambarlarga ne sababdan vahiy yuborgan ersak, shunday vahiy yubordik” degan qavli hususida” deb nomlangan 1-bobi hadislarida Muhammad Payg‘ambarning Payg‘ambarligi boshidayoq ayol kishilarning mehribonligi va e‘tiboriga yaqqol dalil bor. Birinchi bor vahiy kelganida a‘zoyi-badanlari titrab-qaqshab kelib, “meni o‘rab qo‘yinglar”, deganlarida ularni qo‘quvlari tarqaguniga qadar o‘rab qo‘yishdi. So‘ng “men o‘zimdanda xavotir oldim” deganlarida ayollari Xadicha “yo‘q, mutlaqo unday emas. Xudo haqqi, Alloh taolo sizni hech vaqt sharmanda qilmag‘ay, siz qarindosh-urug‘chilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yg‘aysiz, og‘irni yengil qilg‘aysiz, yo‘qsillarni to‘ydirg‘aysiz, mehmon kutg‘aysiz va haqiqiy ezguliklarning ro‘yobga chiqishiga sa‘yu imdod aylag‘aysiz”¹. Ushbu hadis davomida bo‘lib o‘tadigan ishlarni Xadichaning shijoati deb atashga asos bor. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” to‘plamidagi hadislar, Muhammad Payg‘ambarning Payg‘ambarligi, vahiylar va uning Xadicha binti Huvaylid bilan aloqasini aks ettiruvchi juda muhim manba hisoblanadi.

Muhammad Payg‘ambarga vahiy kela boshlaganda, u birinchi marta Xiro g‘orida bo‘lgan. Bu vaqt – musulmonlar uchun yangi diniy qarashlar va ijtimoiy o‘zgarishlar boshlangan davr hisoblanadi. Muhammad Payg‘ambarning Payg‘ambarlik vazifasi boshlangan davrda musulmonlar o‘sayotgan va ma‘rifatga intilayotgan bir davrda bo‘lgan, bunda jamiyatda ko‘plab ijtimoiy muammolar va diniy qarashlar o‘rtasida ziddiyatlar mavjud edi. Ushbu davrda mushriklarning irqiy va ijtimoiy zo‘ravonligi hukm surgan.

Xadicha binti Huvaylid, Muhammad Payg‘ambarning birinchi xotini va uning birinchi ishonchli yordamchisidir. U Muhammad Payg‘ambarning Payg‘ambarlik vazifasiga tayyorgarlik ko‘rishida muhim ro‘l o‘ynagan. U nafaqat kuchli, balki aqlli va mehribon ayoldir.

Muhammad Payg‘ambarning Xadicha bilan muloqoti va uning yordam so‘rashi ayol va erkak o‘rtasidagi mehr va e‘tiborni aks ettiradi. Xadicha Muhammad Payg‘ambarga nafaqat quvvat, balki ruhiy qo‘llab-quvvatlash bilan ham yordam beradi. Bu ayollarning ijtimoiy hayotdagi roli haqida davomiy perspektiva beradi. Xadichaning xizmatlari va qobiliyatlari, amallarni bajarishdagi ruhiy muvozanat va niyyatlarni his qilish zarurligini ta‘kidlaydi. Falsafiy-germenevtik tahlil, bu hadis orqali jamiyatda qaror qabul qilishda har bir insonning ahamiyatini ko‘rsatadi. Jamiyatda ayollarga, jumladan, onalar, qizlar, kelinlar va qiz nabiralarga

¹ Sahihi Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasini. Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991. B. – 2. www.ziyouz.com kutubxonasi. / Murojaat sanasi: 12.09.2022.

ko'rsatiladigan g'amxo'rliklar aslida shu jamiyat erkaklariga nisbatan hurmat va sharaf keltiradi. Musulmon jamiyatida Muhammad Payg'ambar tomonidan boshlab berilgan hamma fikrlar va amallar kelgusi musulmon avlodlar zehni va qalbiga kirib joy olgan sunnat amallarga aylangan bo'lib, Imom Buxoriy bu amallarni hadislarda jamlaganligi allomaning ulkan salohiyat va karomat sohibi bo'lganligini tasdiqlaydi.

Germenevtik tahlil yordamida bu suhbat insoniy his-tuyg'ular, ishonch va ko'mak orqali ijtimoiy ro'yxatdan o'tish jarayonlarida qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi. Ijtimoiy hayotda ayollarning muhim roli, mas'uliyatlari va ularning kuchli va mustahkam axloqiy qo'llab-quvvatlashi juda muhimdir.

Tarixdan kuzatsak, Muhammad Payg'ambar davrida ayollar hadis rivoyat qilishda faol ishtirok etganlar. Ba'zi sahobiyalar ko'plab hadislar rivoyat qilgan. O'sha davrda ayollarning jamiyatdagi roli va hadis ilmidagi o'rni o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Sahobiya ayollar hadislarni bevosita Payg'ambarimizdan eshitib, ularni o'zlaridan keyingi avlodlarga yetkazishgan. Ulardan eng mashhurlari: Oisha binti Abu Bakr, Hafsa binti Umar, Ummu Salama, Ummu Atiya al-Ansariya va boshqalar. Sahobalardan keyingi avlodlarda, ayniqsa, tobeinlar davrida ham ayollar hadis rivoyat qilishni davom ettirgan. Ammo hadislar to'plana boshlagani sari ayollarning ishtiroki kamayib, ko'proq erkaklar ustunlik qila boshlagan. Bu davrda hadis rivoyatchilari haqida ma'lumot yig'ish (rijol ilmi) yuzaga keldi. Bu ilmdagi yondashuvlar ham hadis tizimida ayollar muammolari shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Hadis to'plamlari tuzilishi davrida muhaddislar (hadis olimlari) sahih hadislarni ajratish uchun qattiq mezonlarni qo'llashgan. Bu mezonlar ba'zi hollarda ayol rivoyatchilarga nisbatan adolatsiz munosabatga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Tarix davomida ayollarga nisbatan ijtimoiy cheklovlar, ba'zi jamiyatlarda ayollarning ta'lim olishi, jamoat ishlarida ishtirok etishi va o'z fikrlarini erkin ifoda etishi chegaralangan bo'lgan. Bu kabi vaziyatlar hadis tizimida ayollarning ishtirokiga va bu mavzuning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Rijol ilmi (hadis rivoyatchilarini o'rganish ilmi) da erkak va ayol rivoyatchilarga nisbatan turlicha yondashuvlar bo'lgan. Ayol rivoyatchilarning xotirasi va ishonchliligi borasida ba'zi savollar tug'ilgan. Ba'zi hollarda ayollarning rivoyatlarini zaif, deb baholashga moyillik kuzatilgan. Bu ham hadis tizimida ayollar muammosining shakllanishiga ta'sir qilgan.

Muhammad Payg'ambar esa ayollarni hurmat qilganlaridan ularni ham ilm olishiga o'zlari sharoit yaratib, bir kunni ayollar uchun ajratdilar va o'sha kunlarda ayollarga va'z-nasihatlarni o'qidilar. Quyida keltiriladigan hadis Muhammad payg'ambarning ayollarga ilm berish va diniy masalalarda nasihat qilishiga e'tibor

qaratadi. Hadis, shuningdek, onalik haqidagi tushunchalar va ta'lim berishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Oltin silsila 1-juz 36-bobning 101-102-hadislarida: Abu Said Xudriydan: “ayollar Muhammad Payg‘ambarga: “Erkaklar sizdan har kuni ilm o‘rganishmoqda, bizga ham bir kun ajrating”, – deyishdi. Muhammad Payg‘ambar bir kunni tayinlab, o‘sha kun kelgach ularga va’z-nasihati aytdilar, ba’zi diniy ishlarni buyurdilar: “Ey xotinlar, orangizda 3 ta bolasi o‘lgan birorta ham xotin bo‘lmasa kerak, mabodo bo‘lsa, uni o‘sha bolalari parda bo‘lib do‘zah o‘tidan asraydi”, – dedilar. Shunda bir xotin: “2 ta bo‘lsachi?” – deb so‘radi. Muhammad Payg‘ambar: “2 ta bo‘lsa ham”, – dedilar (bu gap otaga ham taalluqlidir)”².

Hadisda ayollar Muhammad payg‘ambardan ilm olishni xohlayotganliklari haqida so‘z yuritadilar. Bu musulmon ayollarining ta'lim olish huquqini yaxshi anglatadi. Zamonaviy jamiyatda ayollar uchun ta'lim imkoniyatlarini oshirishning ahamiyati yuqori. Bugungi kunda ayollar o‘z bilimlarini oshirish va ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy masalalarda faol ishtirok etishlari juda muhimdir.

Oila institutini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning yaqin hamkorligini hamda faol rolini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli ³ farmoniga muvofiq bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Imom Buxoriy o‘z asarida ijtimoiy turmushda duch keladigan turli holatlarni qamrab oladigan hadislarni ularning roviylarini sahih ko‘rsatish usuli orqali tartibga keltiradi. Alloma tomonidan qo‘llanilgan bu usul butun tarix davomida o‘zining to‘g‘riligini isbotladi, chunki islom dunyosidagi eng mashhur olimu-ulamolar ham Imom Buxoriyni o‘zlariga ustoz deb bilishdi va to‘plagan hadislariga bevosita murojaat qildilar. Darhaqiqat, Imom Buxoriy barcha muhaddislar ichida “ustoz” deb tan olingan allomadir.

“Sahihu Buxoriy” ning 124-bobida tilamchiga erining uyidan ezgu niyatda biror narsani sadaqa sifatida bergan yoki uning qornini to‘ydirgan ayolga tegadigan savob haqidagi hadis keltiriladi. Oila boshlig‘i, ya’ni er uyda bo‘lmagan holatlarda ayollar ona sifatida ro‘zg‘or ishlarini boshqarishga mutasaddi hisoblanadi. Bunday holatlarda ayollar qo‘shnilar bilan oldi-berdi munosabatlarini qilish, savdo va tijorat ishlarini

² Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. 248-249-b.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli farmon <https://lex.uz/docs/-3797625.09.05.24>

amalga oshirish, bolalarni maktabga kuzatish, maktabdan kutib olish va uy ishlarini bajarish hamda bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanish kabi⁴ amallarni bajaradi.

Bu hadisda o‘rta asrlarda tez-tez uchrab turgan holatlar, ya’ni tilamchilarning eshik taqillatib kelib, uy egalaridan biror sadaqa qilishligini yoki ehson qilishligini so‘raydigan holatlar tez-tez uchrab turganligi aniqlanadi. Rivoyat qilingan bu hadis mana shu holatni nazarda tutadi. Oisha onamiz rivoyat qiladirlar: “Muhammad Payg‘ambar: “Agar ayol yaxshi niyatda erining uyidagi yeguliklardan olib chiqib, tilamchining qornini to‘yg‘izsa, o‘ziga ham, eriga ham, shuningdek, xazinachiga ham savob tekkaydir. Eriga ishlab topib kelgani uchun, unga (ayolga) ersa, sadaqa bergani uchun savob tekkaydir”, – deganlar”⁵. Muhammad Payg‘ambarning bu hadisining ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, johiliyat davridan qolib kelayotgan insonlar orasidagi munosabatlarda tilamchilarga past nazar bilan qarash, ularga biror narsa berish o‘rniga so‘kib va haqorat qilib, haydab solish kabi odatlarni bartaraf qilishdir. Bundan tashqari, sadaqa savobining ulug‘ligi haqida ham so‘z boradi. Ayollar ham sadaqa bera olishi, hatto erining topganidan sadaqa bersa ham unga savob yozilishi, ayolning jamiyatda o‘z o‘rni bor ekaniga dalolat qiladi.

Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi O. Baxriyevning bu fikrlari Imom Buxoriyning ko‘p yillar davomida olib borgan mashaqqatlari natijasi o‘laroq yaratilgan “Sahihi Buxoriy” to‘plamida jamlangan ayollar mavzusiga doir hadislar nafaqat yozilish uslubi, ma’rifiy-madaniy, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy tizimlanishi asosida, balki shar’iy talablarga ham to‘liq mos kelishi asosida qurilganligini ko‘rsatadi. Bu hadislarda ayol kishining sha’ni va shaxsiy mavqei daxlsizligi talablariga rioya qilingan, deyish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, garchi Imom Buxoriyga qadar ham hadislarni jamlash va ularni jome asarlar qilish ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, biroq Buxoriy o‘zidan oldingi ulamolarning ishlariga bir yangilik kiritdi, ya’ni Imom Buxoriy o‘z asarida Muhammad Payg‘ambarning hadislarini tizimlashtirishda, ayniqsa, ayollar masalasiga oid hadislarni tizimlashtirishda, avvalo, hadislarning sahifligiga, ularning roviylarining to‘g‘iriligiga katta e’tibor qaratdi va bu bilan o‘z usulini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sahihi Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjiması. Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991. B. – 2. www.ziyouz.com kutubxonasi. / Murojaat sanasi: 12.09.2022.
2. Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. 248-249-b.

⁴Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. 250-251-b.

⁵Imom Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. 1-jild. www.ziyouz.com kutubxonasi B. 289.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli farmon <https://lex.uz/docs/-3797625.09.05.24>
4. Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriĭ. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. 250-251-b.
5. Imom Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. 1-jild. www.ziyouz.com kutubxonasi B. 289.